

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNVERSITETI
TABIIY FANLAR FAKULTETI
EKOLOGIYA BO'LIMI II-KURS 21-GURUH
TALABASI RAHIMOV UCHQUNNING
EKOLOGIYA KONSEPSIYASI VA TARIXI
FANIDAN YOZGAN**

KURS ISHI

MAVZU: ANTROPOGEN OMILLAR KONSEPSIYASI

**BAJARDI:
QUBUL QILDI:**

**RAHIMOV. U
TILOPOV. T**

MAVZU: ANTROPOGEN OMILLAR

Reja

Kirish

- 1. Antropogen omillar haqida malumot**
- 2. Tabiat va inson**
- 3. Fan texnika taraqqiyotining jamiyat, tabiat, inson va atrof muhitga ta'siri**
- 4. Antropogen omillarni o'simlik va hayvonot olamiga ta'sir qilishi va oldini olish**

Xulosa

Kirish

Antropogen omillar xozirgi vaqtda tabiatdagi eng kuchli omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Inson tirik organizmlarga to'gridan-to'g'ri ta'sir etib yoki yashash sharoitini o'zgartirib uni tarqalishida yoki qirilib yo'q bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Antropogen omil deganda insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ta'sirlar tushuniladi. Insonning tabiatga ko'rsatadigan ikki turdagi ta'sirini bir-biridan yaxshi ajratish lozim ulardan biri tirik organizmlarga yoki ularning ayrim vakillari ko'rsatiladigan to'g'ridan-to'g'ri ta'siri yani antropik omillar deb qalsa ikkinchisi esa insonning atrof-muhitini o'zgartirish kabi salbiy ta'sirini antropogen omillar deb qarash kerak

Antropik omillarni o'z navbatida to'rt turga bo'lish mumkin

1. Ozuga va boshqa ehtiyojlashi qondirish uchun (ovlash, baliqchilik, o'rmonlarni kesish ularni o'rish va boshqalar) tirik organizmlardan foydalanish va qirish
2. O'simliklarni ko'paytirish (madaniylashtirish) va hayvonlarni qo'lga o'rgatish
3. Akkliminizatsiya va introduksiya yani organizmlarning tabiiy arialida boshqa joylarga ko'chirib olib boorish va moslashtirish
4. Yangi madaniy o'simlik navlar va hayvon zotlarini yaratish

Inson tabiatga ko'rsatadigan kuchli ta'siri orqa abiotik va biotic sharoitlarni o'zgartiradi. Insonning ongli yoki ongsiz ravishda o'simlik va hayvon turlarini yersharining birjoyidan ikkinchi joyga olib borishi bazan flora va fauna tarkibini birmuncha o'zgartib yuboradi. Inson tamonidan o'simlik va hayvonlarning yashash sharoitlari o'zgartirildi natijada moayan joyda yashaydigan o'simlik va hayvonlar jamolari yo'q bo'lib yoki ularni sharoiti o'zgarib ketdi. Masalan tog' o'rmonlarda daraxtlarni kesib tashlash shubhasiz ularning ostida yashaydigan soy sevar o'simliklarning yashash imkonidan mahrum qildi. Bundan tashqari hayoti daraxtlash bilan bog'langan (oziqlanuvchi , uya qurgan) qushlarning yo'qolishiga olib keldi.

Keyingi yillarda fan va texnikani taraqqiy etishi tufayli sanoat korxonalari va transport vositalari ko'paydi, ulardan chiqqan chiqindilarni biosferaga ta'siri kuchaydi. Shuningdek sayyoramizda aholi sonini keskin o'sishi, tabiiy resurslardan keng va noto'g'ri foydalanish tabiat muvozanatini buzib, global darajadagi ekologik muammolarni (ozon qavatini siyraklashuvi, atmosfera havosining isishi, cho'llanishlar, bioxilma-xillikni qirilib borayotganligi, ichimlik suvini keskin kamayishi va hokazolar) keltirib chiqardi. Oqibatda nafaqat tabiatdagi barcha tirik organizmlarni, hatto insonning o'zini yashab qolishi xavf ostida qoldi. Bunday holatni kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri, aholi o'rtasida, ayniqsa, yoshlarda ekologik ta'lim tarbiyaning past darajada ekanligi, tabiat qonunlarini chuqur bilmaganliklari oqibatidan sodir qilindi.

Antropogen omillar, muhitning antropogen omillari — odam va uning xo‘jalik faoliyatining o‘simlik, hayvon va b. tabiat komponentlariga ta’siri b-n bog‘liq omillar guruhi. Odam tabiatga ta’sir ko‘rsatib, uni o‘z ehtiyojlariga moslashtirib, Yerning beqiyos keng hududlarida fauna va flora-ni o‘zgartiradi, bu esa o‘simliklarning kamayishi, ayrim o‘simlik va hayvon tur-larining qirib yuborilishi, o‘simliklar introduksiyasi va b.ga olib keladi. Odamning tabiatga bilvosita ta’siri iqlimni, atmosfera va suv havzalarining fizik holati va kimyoviy tarkibini, yer-ning ustki qatlamini, tuproq struktura-rasi va b.ni o‘zgartirish yo‘li b-n amalga oshiriladi. Qo‘riqlarni o‘zlashtirish, monokulturali (bir ekinli) agrotsenoz-lar barpo etish va b. tadbirlar tabiiy biotsenozlarni o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Atom sanoatining rivojlanishi, ayniqsa atom qurollarini sinash, suv, atmosfera va tuproqni ifloslantiruvchi sanoat chiqindilarining ko‘payib borishi muammolari muhim bo‘lib bormoqda. Odam madaniy o‘simliklar va uy hayvonlari uchun ma’lum darajada yangi sharoit yaratdi, ularning zotlarini yaxshiladi va mahsuldorligini oshirdi, ekinzorlarning hosildorligini juda ko‘paytirdi, lekin tabiat qonunlarini chuqur bilmasdan tabiiy muvozanatda buzilishlarga olib keladigan faoliyat kutilmagan salbiy oqibatlarga olib keliishi mumkin. Ekinlarni noto‘g‘ri sug‘orish yerning sho‘rlanishi va eroziyaga olib keladi; yerni ortiqcha quritish o‘simliklar qoplamini o‘zgartiradi. Hozirgi. zamon fani va texnikasi insonning tabiatga keng miqyosda aralashishiga qulay sharoitlar yaratib berib, o‘z navbatida atrof muhitni muhofaza qilishni muhim muammoga aylantirdi.

Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go‘shadir. Tabiat ularni to‘ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. O‘z navbatida tirik mavjudot ham tabiatga mehr qo‘yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklarini ko‘paytirish tuyg‘usi bilan uyg‘unlasha olsagina haqiqiy sanaladi. Yaqin o‘tmishimizda biz «Tabiatni sevamiz» deb bong urdigu, biroq uni asrab-avaylash ishiga mas’ul ekanligimizni unutib qo‘ydik. Ana shu mas’uliyatsizligimiz «Ekologiya» deb nomlanuvchi yangi fanga zamin yaratdi. «Ekologiya» so‘zi «eko» — uy, turar-joy, «logos» - fan so‘zlaridan olingan bo‘lib, u atrof-muhitning buzilishi va bunga sabab bo‘lgan omillar, muhit halokatining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish borasidagi bilimlarni targ‘ib etish asoslarini o‘rganadi.

Yangi asrning barkamol kishi o‘zida ekologik madaniyat unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Ekologik madaniyat — bu atrof-muhit to‘g‘risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg‘usiga ega bo‘lish, o‘simliklar hamda hayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga, tabiat zahiralaridan oqilona foydalanish, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko‘rsatkichidir.

Ana shu xislatlarni o'zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi, deb atash mumkin.

Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv havzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar-joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlikning eng oddiy ko'rinishlari sanaladi.

Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof-muhit, jamiyat va ekologiya o'rtasida nomutanosiblik vujudga kelayotir. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirish masalasini ko'ndalang qo'yimoqda.

Ma'lumki, tabiatda hamma narsa bir-biriga uyg'unidir. Fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanayotgan inson esa ana shu uyg'unlikni buzmoqda, unga nisbatan shafqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqda. Tabiiy boyliklardan: suvdan, yerdan o'rinsiz foydalanish ekologiyani o'zgartirib yubordi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri rejalashtirish, kimyoviy o'g'itlarni haddan ziyod ko'p qo'llash yer unumdorligi va inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatyapti. Korxonalardan oqib chiqayotgan zaharli oqavalar suv havzalarini ifloslantirishi birinchi navbatda hayvonot olami va o'simliklar dunyosiga ofat keltirmoqda. Transport vositalaridan chiqayotgan tutun-gaz havoning tozaligini buzyapti. Bularning barchasi insondan ekologik madaniyatni talab etmoqda.

Buni yodda fitting: 1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Sog'lom avlod davlat dasturi va «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi» ishlab chiqildi, «Ekosan» jamg'armasi tuzildi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tabiatni muhofaza etish va ekologiyaga oid zarur hujjatlar qabul qilib, ekologiya ishlarining huquqiy asosini yaratdi.

Aslida, ekologik madaniyat tabiatni barcha go'zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari — sovuq va issiq, qurq'oqchilik, yong'inlar, turli ofatlar ustidan g'alabasi unga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. Bu ko'r-ko'ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylanib boradi. Tabiatga bo'lgan mehr tuyg'usi boyib, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi.

Har bir inson tabiatdan bahra oladi. Ammo bu hali tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go'zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabatga kirishishdan boshlanadi.

O'z navbatida, tabiat insonda kuzatuvchanlik, sezgirlik, nazokatlilik kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi. Bu — insonda ikki ko'rinishda: tabiatga va o'ziga bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Inson tabiatdan faqat zavqlanishni emas, balki uni yaxshi tushunishni ham o'rganadi. Natijada, o'zligini his qilib, tabiatdan unga inson bo'lish imkonini bergan «narsa»ni, ya'ni insonga xos madaniyat hislarini topishga intiladi. Demak, insoniy tuyg'ular tabiatga mehr bilan qarashdan oziq oladi.

Tabiat inson vatan tuyg'usini uyg'otadi, uni mehnat va jasoratga undaydi, juda ko'p tuyg'ularni kamol toptiradi hamda ko'p narsalarni talab etadi. Madaniyatli, ma'naviy kamol topgan inson uchun o'z Vatani tabiatini muhofaza qilish hayoti va faoliyatining uzviy qismiga aylanib qoladi.

O'rta asrlarda yashab ijod etgan allomalar tabiat va undagi muvozanat, hayvonot olami va o'simliklar dunyosi, atrof-muhitni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar.

Muhammad Muso al-Xorazmiy risolalaridan birida odamlarni daryoga mehrli bo'lishga da'vat qiladi, agar daryoning ko'zlari yoshlansa, uning boshiga g'am kulfati tushgan bo'ladi, deydi. Ehtimol, buyuk bobomiz daryo suvini ortiqcha isrof qilmaslikni ham nazarda tutgandir?

Abu Rayhon Beraniy esa tabiatning davomiyligi haqida shunday fikr aytadi: «Ekin ekish va nasl qoldirish bilan dunyo to'lib boraveradi».

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» asarida ko'rgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiati, boyligi, hayvonoti, o'simliklari va odamlari, xalqlarning urf-odatlarini tasvirlagan. Unda yer, suv, havo, turli tabiat hodisalariga tegishli ko'plab fikrlar bor. Bobur o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, qadrlagan va ular bilan hamisha maslahatlashgan. Ayniqsa, u gullar, manzarali hamda mevali daraxtlarni ko'paytirishga e'tibor bergan.

Madaniyatli kishi tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlaydi, bu borada boshqalarni ham to'g'ri faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi, hech bo'lmaganda ko'chalarga axlat tashlanmasligiga, suv va havo ifloslanmasligiga hissa qo'shadi.

Ekologik madaniyat tarkibiga tabiatni muhofaza qilish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati, ekologik tizimni qaytadan o'zgartirish madaniyati ham kiradi. Bular bir kishining yoki hududning vazifasi bo'la olmaydi. Umum insoniyat bunday vazifalarni yechishga birgalikda kirishsagina ekologik muammolar hal bo'ladi.

Masalan, birgina Orol muammosi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Orol dengizining suvi kamayib ketishi haqida dastlabki xavotirlar bildirilganidan beri yarim asrdan ortiq vaqt o'tdi. O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishidan oldingi yillarda dengizning sathi keskin kamayib ketayotganligi baralla gapirilib, bu masalaga butun dunyo mamlakatlari va suvchi mutaxassislarning e'tibori tortildi.

Buni yodda fating: Orolning qurib ketishi faqatgina uning atrofida joylashgan O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston emas, butun dunyo iqlimiga salbiy ta'sir etadi. Shu-ning uchun Orolni saqlab qolish dunyo ahamiyatidagi muammodir.

Biz kelajak avlodlarga yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarimizni, bizgacha mavjud bolgan tabiatni va unga munosabatimizni, ya'ni ekologik madaniyatimizni ham meros qoldiramiz. Ekologik madaniyat, bu — faqat tabiatga zarar keltirmaslik emas, balki uning tiklanishi, yanada go'zallashuvi, gullab-yashnashiga hissa qo'shish, atrof-muhitni g'orat etuvchilarga qarshi beayov kurash olib borish degani hamdir.

Fan texnika inqilobi jamiyat va tabiatning o'zaro munosabatida sifat jixatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Bu bosqich tabiiy boyliklarni o'zlashtirish g'oyat zarurligi sayyoramizdagi mavjud resurslardan misli ko'rilmagamn darajada foydalanish bilan tavsiflanadi. Fan texnika inqilobi ilgari ma'lum bo'lmagan texnik va txnologik vositalarni yuzaga keltirdi. Inson fan va texnika inqilobi natijasida tabiatga munosabat borasidagi erkinlikda yangi bosqichga ko'tarildi, natijada u o'ziga ilgari buysunmagan ko'pgina kuchlarni jilovlab oldi.

Fan texnikaning shiddatli taraqqiyoti hozirgi vaqtda insonning tabiatga ta'sir ko'rsatishi doirasi va mikeslarining kengayganligi shunga olib keldiki, antropogen omillarning ta'sirida tabiiy muhitda o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar esa hayotning moddiy asoslarini qo'pormoqda. Insonni o'rab olgan atrof-muhitni, jamiyat hayot faoliyati uchun yaroqsiz holatga aylantirmoqda, sayyoramizning o'lib borish xavfini tug'dirmoqda. Hayot kechirish vositalarini saqlab qolish muammosi; Asr mavzusiga aylanib, jahon jamoatchiligi diqqat markazida turibdi. Ishlab chiqarish jarayonlari oqibatida muhitning ifloslanishi kelgusi avlodlar uchun mutloqo ochiq-ko'rinib turgan xavf bo'libgina qolmay, balki u hozirning o'zida ham ijtimoiy halokat yoqasiga kelib qoldi.

Fan texnika inqilobi atrofimizni o'rab turgan tabiatga ijtimoiy ta'sirning kuchayishi tabiatning jamiyatga ta'siri kuchayishiga olib kelganligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonlarining ro'y berayotgan jadallashuvi xalq xo'jaligiga tobora o'sib boruvchi miqdorlarda tabiat boyliklarini jalb qilishni taqozo etadi. Bu bilan jamiyatning tabiatga bevosita qaramligini ham kuchaytiradi. Hozirgi fan texnika inqilobi davrida insonning tabiat boyliklaridan foydalanish imkoniyatlari g'oyat kengayadi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning tabiatga va atrof muhitga xavfli zararli tasiri ancha ortadi. Keyingi 100 yilda insoniyat energetika boyliklarini ming barobar ko'paytirdi. Bu esa unga tabiatga jiddiy va oqibatlari uzoqqa cho'ziladigan tasir o'tkazish imkonini beradi. Fan texnika inqilobi davomida bu ko'rsatkichlar yana o'sib boradi. Rivojlangan mamlakatlarda tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmi endilikda har 15 yilda 2 barobarga ortmokda. Shunga muvofiq ravishda atmosferani, suv havzalarini, tuproqni bulg'ovchi xo'jalik faoliyati chiqindilari miqdori ham 2 barobar ko'paymoqda.

Ishlab chiqarish tabiatdan 100 shartli birlikni oladi, lekin 3-4 qismidan foydalanadi xolos. qolgani esa ifloslangan modda va chiqindilar ko'rinishida atrof-muhitga chiqarib tashlanadi. Industriya jihatidan rivojlangan mamlakatlarda tabiatdan har yili jon boshiga 30 tonna modda chiqarib olinadi, shundan ayrim hollarda 1-1.5 % etmasa istemol qilinadigan mahsulot shakliga

kiradi, qolgani esa ko'pincha tabiat uchun ham xavfli bo'lgan chiqindiga aylanadi. Fan texnika inqilobi shunga olib keldiki, birinchidan biosferaning xarakat qilish jarayonlari jadallashadi, ikkinchidan biosferaning materiya va energiyaning yangi ko'rinishlari joriy qilinadiki, ular tabiatda tabiiy ko'rinishda bo'lmaydi: uchinchidan tabiat kuchlari va qonuniyatlari tobora yangi yo'nalishlari harakatga ega bo'lib boradi. Jamiyatning tabiat bilan munosabatlaridagi uyg'unlashuv talablari insoniyat oldiga yangi-yangi muammolarni qo'yaversa, bora-bora muammolar ham ko'ndalang bo'ladi. Hozir atrof muhitga ta'sir o'tkazishning asosiy yo'nalishlari - bu ilmiy texnika taraqqiyotini industrialashtirish va sanoatning yuqori sur'atlarda o'sishi, moddiy iste'molning yuqori darajadali deb xisoblanmoqda. Keyingi yillarda ilgari ma'lum bo'lmagan butun bir guruh kasalliklar yuzaga keldi va aniqlandi, o'ziga xos epidemiologik hamda amaliyotga ega yuqumli kasalliklar, oldini olish murakkab bo'lgan genetik kasalliklar, endokrin, allergik va zaharlanish kasalliklari, shu jumladan ilgari bo'lmagan kimyoviy moddalar massasini ko'payishidan avj oladigan zaharlanishi-allergik kasalliklar shular jumlasidandir. Shunday qilib atrof muhit aholining sog'lig'ini va umuman inson rivojini belgilovchi omillar orasida muhim rol o'ynadi. Sog'liqni yaxshilash va mustahkamlash uchun shart-sharoitlar yaratilsa, uning ta'sirini hazm qilish mumkin.

Ijtimoiy guruhda odamlar birligi tarixiy shakllari oila, ishlab chiqarish jamoasi, kasbkorlar guruhi, millat, davlat, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli darajalarda aloqalar va munosabatlarning ijtimoiy tizimini chuqur urganmasdan inson ekologiyasini tushunib bo'lmaydi. Ekologik vaziyat turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri aniq shakllarining rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Organizm bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabat moslashuv negizida ro'y beradi. I.P.Pavlovning fikricha, jonzor eng umumiy tavsifi shundan iboratki u o'zining muayyan o'ziga xos faoliyati bilan nafaqat tashqi kuzatuvchilarga balki shuningdek alohida davrida aloqada bo'lgan boshqa kuzatuvchilarga ham javob beradi. Ya'ni jonli mavjudot moslashish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Bu xususiyat turli tarzda namoyon bo'ladi, unga faqat tor ma'noda qaramaslik kerak. Hayvonot turlarining katta guruxi ob-havo sharoitlariga ham sust va faol moslashadi. Shu nuqtai nazardan moslashuv shunday jarayondirki, u ham organizmlarga ham uni o'rab turgan atrof muhitga ta'alluqlidir. Insoniyat jamiyati o'zining butun tarixi davomida atrof muhit bilan uziksiz-munosabatda bo'ladi. Bunda u atrof muhitga muttasil moslashib boradi. Lekin bu moslashuv faol xarakterga ega bo'ladi. O'z atrofidagi muhitni va turmush tarzini asta-sekin

takomillashtira borish insonning moslashuvida ayni faol shakl hisoblanadi. Inson atrof muhitga o'z ta'sirini mehnat orqali amalga oshiradi.

U ijtimoiy ishlab chiqarish jamiyatini tabiatdan ajratibgina qolmay, balki jamiyatni tabiatning qolgan qismi bilan boglaydi ham. Boshqa jonli organizmlardan farqli o'larok, ayni ishlab chiqarish tabiatni o'zgartiruvchanlik faoliyati o'ziga xos va insonga xos faoliyatidir. Inson o'z atrofidagi muhitni shakllantiradi. Tabiat va inson jonli mavjudotlarni tashkil etadi. Jamiyat tabiatdan tashqari o'zining noorganik jismida yashay olmaydi. Xorijiy ijtimoiy amaliyotchilar, ijtimoiy gigienachilar fan texnika taraqqiyotining insoniyat taqdiriga ta'sirini baholab, fan va texnika o'z-o'zidan insoniyatni elektron jannatga olib keladi, deb xisoblaydilar. Unda hozirgi zamonning barcha ziddiyatlari bartaraf etiladi, odamlar va maorif rivoji ta'siri ostida eng oliy axloqiy sifatlarga ega bo'ladilar. Keyingi vaqtda yangi texnikaning umumiy tez rivojlanishi bilan birga xavfsizlikni ta'minlashda ham sezilarli siljish kuzatilmoqda. Ammo hayotning barcha jabhalari jadal texnikalashayotgani, texnikaviy uskunalar sonining keskin ko'payishi, ular hayoti tabiiy sharoitlarini uning sog'lig'i va hayotini muhofaza qilishning samarali chegaralari jiddiy ravishda keskinlashmoqda.

Bu ziddiyat o'z manbasiga ko'ra ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri bilan bog'liq emas va texnikani keng qo'llaydigan har bir jamiyatda paydo bulaveradi. Ammo ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri bu ziddiyatlarni hal etishning shakl va usullariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. o'tmishdan xulosa chiqarib, ilmiy texnikaviy va muxandislik loyihalarini chinakamiga va ulkan miqyoslarga ijtimoiy ekspertiza qilishni yo'lga qo'yish zarur. Bu ishga keng jamoatchilikni jalb etish lozim. Ana shunda loyihalarni nazoratsiz ishlab chiqish va ularni amalga oshirish oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan ekologik va boshqa qusurlarni juda kamaytirish va qolaversa to'la yo'q qilish mumkin. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolari jiddiy tus olgan hozirgi davrda tabiat va jamiyat urtasidagi munasabatlarni muvozanatga keltirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tabiat, inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik muammosi asosiy masalalardan biridir. Tabiat jamiyatning yashash muhiti, uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish manbai hisoblanadi. Jamiyat tabiat rivojlanishining oliy bosqichi bo'lib, alohida ijtimoiy mazmunga ega. Tabiat va jamiyat o'zaro uzviy boglangan bir butun materiyaning ikki qismi, o'ziga xos ijtimoiy ekosistema hisoblanadi. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorlik tizimida inson markaziy o'rin egallaydi. Inson bir vaqtning o'zida ham tabiat ham jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy-biologik mohiyatga ega. Modda va energiya almashinuvi tabiat mavjudligining asosidir. Materiya xarakatning yuqori shakli bo'lgan jamiyat tabiatning alohida qismi sifatida yashaydi va rivojlanadi. Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida uning tabiatga bo'lgan munosabati ham o'zgarib borgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida insoniyat tabiatga

sezilarli ta'sir o'tkazmagan. quldorlik tuzumida dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi tabiatga ta'sirning kuchayishiga sabab bo'lgan. Feodalizm tuzumida mehnat vositalarining takomillashuvi, aholi sonining ortib borishi natijasida insonning ta'sir doirasi va surati o'sib borgan. Kapitalistik ijtimoiy-iqtisodiy tuzum qaror topishi bilan fan va texnika rivoji, sanoat, transportning vujudga kelishi, tabiiy boyliklarning tezkor o'zlashtirilishi tabiatga ta'sirning yuqori darajasiga etkazdi. Atrof muhitning zararli chiqindilar bilan ifloslanishi muammosi kelib chiqdi. Tabiat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos antropogen modda va energiya almashinuvi vujudga keldi. Antropogen modda almashinuvi yani xom ashyolarini tabiatdan oshig'i bilan olinishi va zararli chiqindi xolida atrof muhitga tashlanishi tabial va jamiyat o'rtasidagi azaliy muvozanatning buzilishiga sabab bo'ldi. Tabiat va jamiyat munosabatlarining rivojlanishida biogen, antropogen va texnogen (noogen) bosqichlar ajratiladi. Tubiiy muhit holatining inson ta'sirida o'lgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muammolarni ajratish mumkin. Ayrim yirik shahar, sanoat markazlari joylashgan alohida tumanlarda mahalliy, Orolbo'yi, Chernobilda mintaqaviy ekologik tang vaziyatlar vujudga kelgan. Ozon tuynuklari muammosi, kislotali yomg'irlar, cho'lga aylanish, dunyo okeanining ifloslanishi va boshqalar umumsayyoraviy ekologik muammolar hisoblanadi.

Yer yuzida ekologik tang vaziyatli hududlarning keskin ko'payishi ekologik inqiroz xavfining real ekanligini ko'rsatadi. Agar keyingi 30-40 yil ichida ekologik muammolarni hal qilish uchun barcha zarur chora tadbirlar ko'rilmasa, ekologik inqiroz muqarrar bo'lib qolishi mumkin. Tabiat va jamiyatning o'zaro mutanosib rivojlanishi koevolutsiya deb ataladi. Bu rivojlanish suratlari o'zaro mos kelmasa inqirozga olib keladi. Jamiyatning tabiatga ta'sirini meyorga solib turish lozimdir. Ekologiya deganda organizmlarning o'zaro va muhit bilan aloqadorligini o'rganadigan biologik fan tushuniladi.

Tabiatni muhofaza qilish deganda barcha avlodlarning extiyojlarini hisobga olgan xolda tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof muhitni mussafo xolida saqlashga qaratilgan, ilmiy asosda amalga oshiriladigan mahalliy, davlat va xalqaro tadbirlar majmuasi tushuniladi. Tabiatni muhofaza qilish deganda kompleks fan ham nazarda tutiladi. Demak, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tushunchalari alohida mazmun va maqsadga ega bo'lgan tushunchalardir. Ekologiya tabiatni muhofaza qilishning nazariy asosi xisoblanadi.

Antropogen omillarni o`simlik va hayvonot olamiga ta'sir qilishi va oldini olish

O`simlik va hayvonot olamining sayyoramizdagi o`rni. O`simlik va hayvonlar yerning – hayot qobii, biosferaning asosiy komponentlaridan bo`lib, tabiiy resurslar orasida alohida o`rinni egallaydi. Oqilona foydalanilganda o`simlik va hayvonlar tiklanadigan va cheksiz mahsulot beradigan manbaga aylanishi mumkin. Biosferadagi o`ziga xos tabiiy muvozanat ko`p jihatdan o`simlik va hayvonlarning biologik rang-barangligini saqlashi bilan bolliqdir.

O`simliklar dunyosi Yerdagi hayotning birlamchi manbai hisoblanadi. Ular yiliga 380 mlrd.tonna organik modda hosil qiladi, buning 330 mlrd.tonnasi dengiz va okean o`simliklariga, 40 mlrd.tonnasi o`rmonlarga, 8-10 mlrd. tonnasi o`tloqlarga to`ri keladi. O`simliklar er yuzidagi hayotning asosi hisoblanadi. O`simliklar fotosintez jarayoni natijasida havodan karbonat angidrid gazini yutib, kislorod chiqaradi.

O`simliklar havoni xushbo`y hid, fitonsid deb ataluvchi uchuvchan moddalar bilan boyitib, kasallik tarqatuvchi bakteriyalarni qirib tashlaydi. Ular xilma-xil shovqinlarni so`ndiradi va changlarni yutib qoladi. Havoda kislorod miqdorining doimo etarli darajada mavjud bo`lib turishini ta`minlab, kishilar hayoti uchun eng yaxshi mikroiklimni vujudga keltiradi. Olimlarning aniqlashicha, 1 gektar 20 yoshli qaraayzor har yili 9,35 tonna SO<sub>2</sub> ni yutib, 7,25 O<sub>2</sub> chiqaradi. 1 ga maydonga o`rtacha 60 yoshli qaraayzor yiliga 10 tonna O₂ ajratib chiqarsa, 40 yoshli emanzor 14 tonnaga yaqin O₂ ni ajratib chiqaradi. Quyoshli issiq kunlarda 1gektar o`rmonzor 220-230 kg SO<sub>2</sub> ni yutib, 180-220 kg O<sub>2</sub> ajratadi. O`rmonlar tabiiy muhitni tozalovchi, atmosfera va gidrosfera muvozanatini saqlovchi vosita. Hisoblashlarga qaraganda 1gektar oq qayin o`rmoni 1 kunda 47 ming litr suvni buga aylantiradi. Bu suvni tozalash, havoni namlantirish va yoin yoishiga imkon yaratilishi demakdir. O`rmonlar o`ziga xos suv omborlaridir.

Shuningdek hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismi bo`lib, tabiatda modda va energiya almashinuvida ular muhim rol o`ynaydi. Hayvonlar o`simliklar bilan uzviy aloqada bo`lib turadi. Hayvonlar biosferaning eng asosiy qismi bo`lib, o`simliklar bilan birgalikda geografik qobiqda kimyoviy elementlarning migrasiyasida katta rol o`ynaydi. Hayvonlar organik moddalardan quyosh energiyasi ta'sirida o`simliklar vujudga keltirgan tayyor organik mahsulotlarni iste`mol qiladi. Bir-birlari va o`simliklardan oziqlangan hayvonlar biologik hamda sayyoramiz modda almashinuvida aktiv qatnashadi.

Dengizda bir va ko`p hujayrali hayvonlarning qattiq chianoqlaridan chiqindi jinslar (bo`r, ohaktosh) vujudga keladi. Marjon poliplarning faoliyati natijasida okeanning sayyoz, iliq suvli katta hududlarida asosan tropik kengliklarida marjon

orollari paydo bo'lgan. Hayvonlarning (yumaloq chuvalchanglar, tuproq chuvalchanglari, chumolilar, qo'nizlar, sut emuizuvchilarning ayrim turlari) nurash prosessida va ayniqsa tuproq hosil bo'lishda ahamiyati katta. Ayrim hayvonlar (ko'pchilik hasharotlar, ayrim qushlar va ko'rshapalak) o'simliklarni changlatadi, ba'zi hayvonlar, qushlar o'simlik urularini tarqatadi. Hayvonlar hayoti o'simliklar hayoti bilan chambarchas bolangan bo'lib, hayvonlar sonining o'zgarishi bilan o'simliklar bilan o'simliklar soni ham o'zgaradi. O'simliklar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar esa hayvonlarning yashashga, rivojlanishga va tarqalishiga ta'sir etadi.

O'simlik va hayvonlarning inson hayotidagi ahamiyati.

Insonning kundalik hayotida ham o'simliklarning ahamiyati juda katta. Shuningdek, o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida Yer yuzidagi suv oqimiga, bulanishga, tuproqda nam saqlanishida, atmosferaning pastki qismidagi havo oqimiga shamolning kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga katta ta'sir etadi.

O'simliklar jamiyat uchun behisob oziq-ovqat, xom ashyo, dori-darmon, qurilish materiallari va boshqa sohalarning asosiy manbaidir.

O'simliklar har xil kiyim-bosh, ichimliklar tayyorlash uchun shuningdek, chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai bo'lib ham hisoblanadi, insonlarga zavq-shavq beradigan estetik lazzat sifatida ham ahamiyatlidir. Yer sharida mavjud bo'lgan 500 ming o'simlik turining 6000 turidan inson kundalik hayotda foydalanadi. Shundan 1500 turi dorivor o'simlik sifatida ahamiyatga ega. O'zbekistonda 4148 tur o'simlik mavjud bo'lib, shundan 577 tasi dorivor o'simliklar, 103 turi bo'yoqdor o'simliklar, 560 turi efir moyli o'simliklar hisoblanadi.

Insonning o'simliklarga ijobiy va salbiy ta'siri ajratiladi. O'rmonlarni tiklash, ko'kalamzorlashtirish, o'simliklarning serhosil navlarini yaratish va boshqalar ijobiy ta'sirga kiradi. Insonning salbiy ta'siri oqibatida sayyoramizdagi o'rmonlarning 2/3 qismi yo'q qilingan, ko'plab qimmatli o'simlik turlari yo'qolib ketgan. Yangi erlarni o'zlashtirish, atrof muhitning ifloslanishi oqibatida yuzlab o'simlik turlari yo'qolmoqda. O'simliklardan har xil yo'nalishlarda tartibsiz foydalanish natijasida ularning turlari kamayib noyob o'simliklarga aylanib bormoqda.

Hayvonlarning ko'pchiligi xalq xo'jaligi ishlab chiqarish uchun texnikaviy xom ashyo hisoblanadi. Qishlok ho'jalik hayvonlari, baliqlar, mo'ynali hayvonlar, turli-tuman yovvoyi hayvonlar jumlasidandir. Yovvoyi hayvonlar xonakilashtirishning bitmas-tuganmas manbaidir.

Hozirgi paytda mo'ynali hayvonlar (sobol, norka, shimol tulkisi, tulki) xonakilashtirilmoqda, los, tuyaqush, qirovul, oq kaklik va boshqalar qo'lga o'rgatilmoqda. Afrika, Avstraliya va Janubiy Kaliforniyada tuyaqush firmalari

tashkil etilgan. O'tgan asrning oxirlaridayoq viloyatining o'zidagina xonakilashtirilgan tuyaqushlarning soni 200000 ga etgan.

Bundan tashqari hayvonlarda har xil dori-darmonlar olinadi. Hayvonlarning ma'lum turlari ekinlar, inson va ba'zi bir hayvonlar uchun zararli bo'lsa, boshqa bir turlari insoniyat uchun koni foydadir. Ammo hayvonlarning ayrim turlariga baho ularni tabiat uchun mutlaqo foydali yoki mutlaqo zararli deb bo'lmaydi. Masalan: chuurchiq yoz davrida juda ko'p hasharotlarni iste'mol qilib foyda keltirsa, kuz oylarida mevali bolarga ziyon etkazadi.

Avstraliyada kora (kakadu) to'tiqushni qaraay uruini ko'plab eyishda va to'kib yuborishida ayblab yaqin vaqtlargacha kirib yuborilayotgan edi. Keyinchalik juda aniq tekshirishlar va izlanishlar natijasida shu narsa aniqlandiki, to'tiqush o'zi uzib tushirgan uruning ma'lum qisminigina eb, qolgani yana unib chiqar ekan. Shuningdek to'tiqush tushirgan qaraay bujurini (tunsiz yonoq) kam mehnat sarflab terib olish mumkin ekan. Shundan keyingina qora to'tiqushni foydali qush sifatida himoya qilishga kirishildi.

Zaharli ilonlarni yaqin vaqtlargacha ko'plab ushlanar va o'ldirib yuborilar edi. Masalan: Hindistonning Ragnogari rayonida qabul punktlariga yiliga o'rtacha 225000 dona, narxi oshirilgandan keyin esa sakkiz kun ichida 115000 dona ilon o'ligi topshirilgan. Ilonlarni qirib yuborilgan joylarda sichqon va boshqa kemiruvchi hayvonlar juda tez ko'payib ketdi, natijada alla hosili kamaydi, kishilar o'rtasida o'lat, tuleremiya, sariq kasali kupaydi. Ilon zahrining medisidan keyin katta ahamiyatini va ilonlarning tabiatdagi ayrim zararli hayvonlarni qirishdagi rolini hisobga olib, ilonlar endilikda davlat nazorati ostida muhofaza qilinmoqda. Hozirda yirtqich hayvonlarni butunlay yo'qolib ketishiga chek qo'yilmoqda, kamayib qolganlarini maxsus joylarda ko'paytirish choralari ko'rilmoqda. Masalan: bo'rilar va qiriylarni qirib yuborishga chek qo'yildi. Baliq xo'jaligida cho'rtan baliqlarini qirib yuborish ham noto'ri ekanligi aniqlandi.

Ko'pchilik sut emizuvchilar, ayniqsa hasharotxo'rlar va qo'lqanotlilar hamda ayrim yirtqich hayvonlar o'rmondagi zararkunanda hasharotlarni ko'plab kiradi. Masalan: bo'rsiq bir so'tkada 500 tagacha may qo'nizining lichinkasini eydi.

Demak, har qanday hayvon turi inson uchun bevosita yoki bilvosita ahamiyatga ega bo'lganligi uchun ularni qirib yuborishga chek qo'yish kerak. Hozirgi davrda o'simlik va hayvonlarning kamayib ketish sabablari.

Atrof muhitni, shu jumladan o'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish muammosi hozirgi davrda ekologik muammolarning eng muhim masalalaridan biri bo'lib qoldi, chunki kishilar tabiatdan keragidan ortiq foydalanib, uning tabiiy manzarasini o'zgartirib, asrlar davomida vujudga kelgan hamjamoalarga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada o'simlik va hayvon turlarining ko'plab yo'qolib

ketish xavfi tuilmoqda. O`simlik va hayvon turlarining bunday yo`qolib ketishi inson uchun tiklab bo`lmaydigan salbiy oqibatlariga sabab bo`lishi mumkin.

Dunyo okeani dengiz hayvonlariga nihoyatda boy muhitdir. Akademik V.G.Bogorovning ma`lumotlariga ko`ra dunyo okeani suvlaridagi baliqlarining umumiy massasi 1 mlrd. tonna, okeandagi barcha biomassa (plankton, suv o`tlar va boshqalar) 36 mlrd tonnaga tengdir. Dunyo bo`yicha hayvonlardan olingan moylar 40% ni tashkil etadi. Kishilarning oziqlanishi rasionida muhim element bo`lgan oqsilning asosiy manbai go`sht va baliqdir. Umuman olganda kishilar hayvonlardan har yili oqsilga boy bo`lgan 180 mln. tonnadan ortiq oziq-ovqat xom ashyo olmoqdadir, ya`ni sayyoramizdagi har bir kishi 1 yilda 50 kg hayvon mahsulotini iste`mol qilmoqda.

O`rmonlar maydonining o`zgarishi, suv inshootlari qurilishi, shaharlarning paydo bo`lishi, atmosfera havosining o`zgarishi bilan er yuzasi landshaftlari o`zgarmoqda. Ayrim territoriyalarda hayvonlarning ba`zi turlari kishilar tomonidan vujudga keltirilgan madaniy landshaftlarga juda moslashib borayotir. Uy sichqoni, dala sichqoni va kulrang kalamush shular jumlasidandir. Ayrim hayvon turlari madaniy landshaft sharoitiga moslasha olmay yo`qolib ketayotir, masalan: bir vaqtlar keng tarqalgan dala suurlari dalalar o`zlashtirilishi bilan kamayib ketmoqda.

Hozirda qushlarning taxminan 150 turi va kenja turi yo`qolib ketgan hamda 100dan ortiq turi yo`qolib ketish arafasida turibdi. Sut emizuvchilardan 106 turi yo`q bo`lib ketgan. Hozirgi kunda umuman hayvonlarning 600 ga yaqin turi yo`q bo`lish arafasida turibdi.

Ayniqsa, yirik hayvonlarning tabiiy kamayib ketishi geografik landshaft va iqlimiy sharoitlarning o`zgarishi bilan boliq. Kishilar mamont, junli nasorog, or ayii kabi yirik hayvonlarni ovlayverib qirib yuborgan. Qirib yuborilgan hayvonlarni turi va soni sivilizasiya kuchli taraqqiy etgan YEropa mamlakatlariga to`ri keladi. Hozirgi qora mollarni ajdodi yovvoyi tarpanni odamlar qirib yuborganlar, o`rmonlar maydonining qisqarib borishi bilan zubrlar soni kamayib ketdi. 1892 yil zubrlar faqat Belaya Veja pushchasida 375 bosh qolgan. Ko`p ov qilishdan to`echkisi hamda serna (yovvoyi echki) ning ba`zi turlari yo`qolib ketgan, fil, arslon, ayiq va bo`ri juda kam qolgan. Ayrim yirtqich qushlar (tasqara, boltayutar, burgut, shunqor) kamayib ketgan. XIX asr oxirlarida AQShda sayyor kaptarlar ko`p bo`lgan. Keyinchalik kishilar ularni qirib yuborishgan. Ularning oxirgi vakili urochi kaptar 1914 yilda hayvonot boida o`lgan. Hozirda oq qanotli Amerika turnasi yo`q bo`lish arafasida turibdi. Laylaklar ham kamayib ketmoqda. 1844 yilda dengiz qushlaridan qanotsiz gagarkaning oxirgi nusxasini topishgan. Yirik hayvon hisoblangan bizon ham kamayib, Yellouston milliy parkida 635 ta

qoldi xolos. AQSh sharqidagi vapiti buusi, tundra buusi, panshaxa shoxli antilopa va boshkalar yo`q qilindi.

AQShning Alabana shtatida ilonning 3 turi, Luizana shtatida baqaning 4 turi zaharli kimyoviy moddalar ta`siridan nobud bo`ldi. Shimoliy Amerikaning janubi-arbida baliqning 7 turi yo`q qilindi. Yana shinshila (kalamush turi) mo`ynasi qimmatbaho bo`lganligi uchun qirib yuborildi. Endilikda shinshila kataklarda urchitilmoqda.

Galopogos orollaridagi endemik hayvon turlari kaltakesaklar, toshbaqalar, ispanlar olib kelgan cho`chqalar bu hayvonlarni tuxumlarini kavlab eyishi natijasida kamayib ketdi.

Bundan tashkari, Hindiston karkidoni qirilib ketdi, ikki shoxli sumatra va bir shoxli yava karkidonlaridan sanoqli qoldi xolos. Karkidon, fil va jirafalar soni kamayib ketdi. Sut emizuvchilardan va qushlardan quyidagilar umuman yo`q bo`lib ketdi. M: tarpan, dengiz sigiri, antilopa, havorang ot, kvagra, evropa ibisi, sayyor kaptar, karolin to`tiqushi, qanotsiz gagarka.

O`simlik va hayvonot olamini muhofaza qilish choralari.

Noyob va yo`qolib borayotgan turlarning muhofazasiga e`tiborni kuchaytirish uchun 1966 yili Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi tomonidan xalqaro "Qizil kitob" tashkil qilingan. Qizil kitob faqatgina xatar darakchisi bo`lmay, balki muhofaza harakatlarining dasturi hamdir. O`simlik va hayvonlarni muhofaza qilish faqatgina turli davlatlar o`rtasidagi hamkorlik yo`li bilangina muvaffaqiyatli olib borilishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi o`ziga xos o`simlik va hayvonot dunyosiga ega so`nggi yillarda insonning xo`jalik faoliyati natijasida flora va faunaga salbiy ta`sir kuchaydi. O`zbekiston faunasi 682 tur umurtqali hayvonlar va 32484 tur umurtqasiz hayvon turlaridan iborat. 1983 yili O`zbekiston Qizil kitobining 1-jildi e`lon qilindi. O`zbekiston Qizil kitobiga umurtqali hayvonlarning 65 turi kiritilgan bo`lib, 22 turdagi sut emizuvchilar, 33 tur qushlar, 5 tur sudralib yuruvchilar, 5 tur baliqlardan iborat. Ustyurt qo`yi, burama shoxli echki, qor barsi, buxoro buusi va boshqa hayvonlar yo`qolish arafasidadir.

O`zbekistonda mavjud 4 mingdan ortiq o`simlik turlarining 10-12 %i muhofaza talab (4148 tur). Eng qimmatli to o`rmonlarining maydoni o`nlab marta qisqarib ketgan. To`qaylar va qayir o`rmonlari ko`plab kesib tashlangan. Tabiiy yaylovlarning maydoni 6,5 mln.ga qisqargan. Shu bois 1984 yil O`zbekiston Qizil kitobining 2-jildi nashr ettirildi. Unda muhofaza qilinishi kerak bo`lgan 400 o`simliklarning 163 turi kiritilgan. Masalan, cherkez, isiriq, etmak, shovul, anzur piyoz, yovvoyi anjir, yonoq, sumbul, bodom, lola, chinnigul va boshqa o`simliklar.

Yo`qolib borayotgan noyob hayvon turlarini yana ko`payishi xavf ostidadir. Hozirda bunday hayvon turlari davlat muhofazasiga olindi. Ayrim joylarda

qimmatbaho hayvonlar zubr, daryo qunduzi, sobol, qulon, suv kalamushi uchun qo`riqhonalarni tashkil etildi. M: Orol dengizidagi Borsa kelmas qo`riqhonasida sayoq ko`paytirilmoqda. Bodhiz qo`riqhonasida qulon (yovvoyi eshak) asralmoqda. Bundan tashqari hayvonlarni muhofaza qilishda Qizil kitob va xalqaro bitimlarni ahamiyati katta. Tabiiy muhitdagi bunday o`zgarishlar dunyo mamlakatlari xalqlarini birgalashib muhofaza qilishga undamoqda. Baliq ovlash va boshqa dengiz hayvonlarini ovlash bo`yicha 70 dan ortiq shartnomalarni tuzilganligi shular jumlasidandir.

Sayyoramizdagi o`simliklar va hayvon resurslari nihoyatda katta va rang-barang, lekin bu resurslar ulardan faqat oqilona foydalanilgan vaqtdagina hamda ularning tiklanish sharoiti ta`minlangandagina kishilar jamiyati talablarini qondira oladi.

X U L O S A

Biz yoshlarning endiki asosiy maqsadimiz tabiatdan oqilona foydalanish yer va yer ostki resuslarda tejamkorlik bilan foydalani, o'simlik va hayvonot dunyosini asrab avaylash ularni kupaytirish va bizdan keyingi avlodga bus butunligicha yerqazish bining oldungi asosiy maqsadlarimizdan bo'ladi. Bu so'zlar haqida faqatgina gapirib emas balki undagi resuslardan oqilona foydalanish kerak ekanligini yoddan chiqarmasligimiz kerak.

Antropogen omillar, muhitning antropogen omillari — odam va uning xo'jalik faoliyatining o'simlik, hayvon va boshqa. tabiat komponentlariga ta'siri b-n bog'liq omillar guruhi. Odam tabiatga ta'sir ko'rsatib, uni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, Yerning beqiyos keng hududlarida fauna va florani o'zgartiradi, bu esa o'simliklarning kamayishi, ayrim o'simlik va hayvon turlarining qirib yuborilishi, o'simliklar introduksiyasi va b.ga olib keladi. Odamning tabiatga bilvosita ta'siri iqlimni, atmosfera va suv havzalarining fizik holati va kimyoviy tarkibini, yerning ustki qatlamini, tuproq strukturasi va b.ni o'zgartirish yo'li b-n amalga oshiriladi. Qo'riqlarni o'zlashtirish, monokulturali (bir ekinli) agrotsenozlar barpo etish va b. tadbirlar tabiiy biotsenozlarnit o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Atom sanoatining rivojlanishi, ayniqsa atom qurollarini sinash, suv, atmosfera va tuproqni ifloslantiruvchi sanoat chiqindilarining ko'payib borishi muammolari muhim bo'lib bormoqda. Odam madaniy o'simliklar va uy hayvonlari uchun ma'lum darajada yangi sharoit yaratdi, ularning zotlarini yaxshiladi va mahsuldorligini oshirdi, ekinzorlarning hosildorligini juda ko'paytirdi, lekin tabiat qonunlarini chuqur bilmasdan tabiiy muvozanatda buzilishlarga olib keladigan faoliyat kutilmagan salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ekinlarni noto'g'ri sug'orish yerning sho'rlanishi va eroziyaga olib keladi; yerni ortiqcha quritish o'simliklar qoplamini o'zgartiradi. Hozirgi. zamon fani va texnikasi insonning tabiatga keng miqyosda aralashishiga qulay sharoitlar yaratib berib, o'z navbatida atrof muhitni muhofaza qilishni muhim muammoga aylantirdi.

Adabiyotlar ro'hati:

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xafsizlikka tahdid, beqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – T. “O'qituvchi”, 1997
2. Tursunov X. T., Rahimova T. U. Ekologiya “Chinor ENK” T., 2006 – 152 b.
3. Sultonov R. S. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. T., “Musiqqa”, 2007 – 234 b.
4. «Охрана окружающей среды» (законы и нормативные документы) - М.: 2002
5. Ergashev A., Ergashev T., Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T., “Yangi asr avlodi”, 2005 – 430 b.
6. A.C. To'xtayev “Ekologiya” O'qtuvchi 1998
7. www.nature.uz
8. www.uznature.uz
9. www.econews.uznature.uz
10. www.ecologiya.yangi.uz